

## BUGUNGI KUNDA TARBIYACHI KASBIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*  
**Xolboyeva Gulnora Ulashovna**

Pedagogik mahorat-bu–tarbiyachining shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroficha bilishida, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, kutubxonachi rahbar va xodimi insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirishi lozim.

Shuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, tarbiyachilik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, bola bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachidan pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi. Pedagogik mahorat- pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, xodim shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim.

Xodimning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon–e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular rahbar va xodimiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Pedagogik nazokat(takt) – o'qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'Ichovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va o'qituvchi - tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o'z kasbining mohir ustozи bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

Tarbiyachilar har tomonlama ta'lim-tarbiya jaraènini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qièfasiga ham e'tibor berishi lozim.

Tashqi qièfa orqali bolalarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoèn qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish ish jaraènini samaradorligini oshiradi.

Lug'aviy jihatdan "imidj" (ing. —image") tushunchasi —siymo, —timsol, —qièfa va —obraz ma'nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko'ra esa ushbu tushuncha èrdamida —joziba, —maftunkorlik ma'nolarini ifodalaydi.

Imidj - aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot èki boshqa ijtimoiy ob'ekt qièfasidir.

Pedagogik imidj - pedagogning ma'naviy-axloqiy qièfasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikdir.

Tarbiyachining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati

1. Gavdani tutish-to'g'ri tutish(yurishda, o'tirib turishda), qo'llarning rahbar va xodimi stolida erkin holatda bo'lishi, batartibligi, ixchamligi.

2. Kiyim- ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglning mos holda tanlanishi, kiyimning èshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko'p va kamligi, ishiga mosligi.

3. Pardozning me'èrdaligi, èshi, kasbi va ishiga mosigi.

4. Soch turmagi (sochning ma'lum bir tartibliligi).

5. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi.

Tarbiyachining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o'rın tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, tarbiyachining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi èki kinoyали tabassumida namoèn bo'ladi va ular tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, bolalarga mashg'ulotlarni ta'sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'tish uchun puxta zamin tayèrlab beradi.

6. Mimika-his-hayajonning ifoda etishi, yuz mushaklarining, ma'noli

harakatlarning so'zlaètgan nuqtaga gapga mosligi. Mimika- bu o'z fikrlarini, kayfiyatni, holati, hissiètini tinglovchi bajaraètgan ishdan roziligi èki norizoligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko'z muskullarini harakatga keltira olish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi bolalarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish uchun imkon yaratadi. Bola pedagogga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o'qib» oladilar.

Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quv mashg'ulotlariga ta'sir ko'rsatadi. Mimik ifodalar bolaning o'quv kayfiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos ta'sirini ko'rsata bilishi talab etiladi. Bu o'quv - tarbiya topshiriqlarini yechish bolalar ta'limi va tarbiyasiga ijobiy yo'nalish bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, esa o'z navbatida nutq va munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qayd qilinganidek qosh, ko'z, yuz ko'rinishi va muskullari ishtirok etadi. Ko'z, qosh, yuz bolalar javobidan qoniqish, xursand bo'lismi, faxrlanish èki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa, ta'lim oluvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim - tarbiya ishlarini olib borish muvaffaqiyatli kechadi. Shuni ham alohida e'tirof etish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinaётган paytda tarbiyachining nigohi bolalarga, èki qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga èki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

7.Pantomimika- qo'l,oèq, gavda harakatlari: yurish, qadam tashlash, erkin harakat qilish, jestlar va boshqalar.

Pantomimika – bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. Tarbiyachi mashg'ulotda o'quv ma'lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chizadi, bolalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg'ulari, ularning tashqi hissiётlari bilan qo'shilib butun borliq ma'lumotlar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq baён qila turib qo'l, boshni turli harakatlarga keltirish tarbiyachining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini anglatadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, tarbiyachi bolalar oldida o'zini tuta bilsa, harakatlarini tartibga keltira olsa, o'quv-tarbiya jaraёni samarali bo'ladi. Mashg'ulotlar jaraёnidagi oèqlar 12-15 sm. oraliqda bir oèq sal oldinga surilgan holda turish bu tarbiyachining o'z fanini mukammal bilishi, uni tushuntira olishiga ishoradir.

Tarbiyachining ishoralari ma'noli bo'lib, u ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor. Masalan, keraksiz hollarda qo'llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uèq-buèqqa tashlash, oèqlarini kerib o'tirish va h.k. Bunday holatlar bolalarning g'ashini keltiradi va o'quv faniga, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Tarbiyachi guruhda yurgan paytida faqat oldin va orqaga qarab yurishi tavsiya etiladi. Chunki, agar u èn tomonlarga, ya'ni, u èndan, bu ènga yursa bolalar fikri bo'linadi va ular tez charchab qoladilar. Old tomonga yuraёtganida, tarbiyachi eng muhim voqealarni baён qilishi lozim, chunki bunda bolalar tarbiyachini butun diqqatlari bilan eshitaёtgan bo'ladilar. Yuzi bolalarga teskari holda yuraёtganda uncha ahamiyatga molik bo'Imagan fikrlarni aytish, dalillar keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu vaqtida bolalar bir oz erkin holatda o'zlarini his qilaёtgan bo'ladilar.

O'z hissiyotini boshqara olish malakasi tarbiyachi pedagogik texnikasi tizimida o'z hatti-harakati, hissiètini idora qilishi va ruhiy (psixik) holatini boshqara olishi ta'lîm-tarbiya jaraèni uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi ta'sir ko'rsatish vaqtida (mashg'ulotda, mashg'ulotdan tashqari paytlarda, tarbiyaviy ishlar jaraènida) o'z hissiètini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olishi ham pedagogik texnika tizimining muhim elementidir. Buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko aytganidek: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, èki jahldor bo'lishini bilishi lozim, U o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o'qitsin». Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, pedagogik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalay oladi, asabiyashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini asraydi. O'z xatti - harakati, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog, avvalo, o'zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

- hayrixohlik va optimizm ruhida bo'lish;
- o'z hulqini nazorat qilish, (muskul zo'riqishini, harakatini, nutq tempini, nafas olishini tartibga solish);
- faoliyatni dam oldirish, ya'ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy daqiqalarni yaratish;
- o'z - o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish va h. k.

Shunday qilib, tarbiyachi yuqorida qayd etib o'tilgan pedagogik texnika ko'nikmalarini tarbiyalangan bo'lsa, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Г.УХолбоева.Физическое воспитание детей дошкольного возраста. Еврзийский научный журнал, 462-464.2016 г

2.G.U Xolboyeva MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLARI Academic research in educational sciences 3 (3), 792-794.2022 у

3.Г.У Холбоева. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TALIM TARBIYA BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ.2020 г

4.G.U Kholboyeva IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE EDUCATORS FOR THE FORMATION OF ECOLOGICAL LITERACY OF CHILDREN. Theoretical & Applied Science, 355-359 2020 у

5.Г.У Холбоева.Содержание и методика проведения физкультурных досугов в дошкольных учреждениях. Вестник современной науки, 131-133.2016 г

6. Г.У Холбоева.Содержание и методика проведения физкультурных досугов в дошкольных учреждениях. Вестник современной науки, 131-133.2016 г

7. G.U Kholboyeva. Improvement of methodological preparation of future educators for the formation of ecological literacy of children..Theoretical & Applied Science, 355-359. 2020 y.
8. Г.У Холбоева. Maktabgacha yoshdagи bolalarga ekologik talim tarbiya berishda zamonaviy yondashuv. Инновации в педагогике и психологии. 2020 г
- 9.X.G Ulashovna.Improvement of methodological preparation of future educators for the formation of ecological literacy of children. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 3 (ISSN:2308)